

KONSORTSIUM

Hamkorlar:

- ✓ **LBTU** – Latviya Hayot fanlari va Texnologiyalar Universiteti
- ✓ **SAMARU** – Samarqand Agroinnovatsiyalar va Tadqiqotlar Universiteti
- ✓ **AIAA** – Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agroteknologiyalar Instituti
- ✓ **TUT** – Tojikiston Texnologiyalar Universiteti
- ✓ **KITIM** – Kulob Texnologiyalar va Innovatsion Menejment Instituti
- ✓ **BTUTI** – Tojikiston Texnologiyalar Universiteti Isfara filiali
- ✓ **SUA** – Slovakiyaning Nitra Qishloq xo'jaligi Universiteti

QO'SHIMCHA HAMKORLAR

O'zbekistonda

- ✓ "AGROMIR" LLC kompaniyalar guruhi (meva va sabzavotlarni qayta ishlash)
- ✓ "Navigul" MCHJ QK (meva va sabzavotlarni qayta ishlash)
- ✓ "Samarqand don mahsulotlari" JSC (donni qayta ishlash)

Tojikistonda

- ✓ CJSC "Combinati Shiri Dushanbe" (sutni qayta ishlash)
- ✓ LLC "Orion Rustam" (go'shtni qayta ishlash)
- ✓ Xatlon tadbirkorlar uyushmasi

FAOLIYATIMIZNI KUZATIB BORING:

- 🌐 www.ofinu.eu
- 📘 <https://www.facebook.com/groups/1109145646816155>
- 📌 <https://t.me/ofinu2024>

YEVROPA ITTIFOQI

Bu loyiha Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi Key Action 2 – "Tashkilot va institutlar o'rtasidagi hamkorlik" tomonidan moliyalashtirilgan. Sub-action: oliy ta'limda salohiyatni oshirish loyihalari.

Yevropa Ittifoqi 27 ta davlatlar guruhi. Bu davlatlar odamlar uchun narsalarni yaxshiroq, oson va xavfsizroq qilish uchun birlashdilar. Ular birgalikda ishlashga va bir-birlariga yordam berishga kelishib oldilar.

Yevropa Komissiyasi Yevropa Ittifoqining ijro etuvchi organidir. Yevropa Komissiyasi Markaziy Osiyoning beshta davlati: Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston bilan ikki tomonlama va mintaqaviy darajada hamkorlik qiladi.

Erasmus+ Yevropa Ittifoqining Yevropada ta'lim, o'qitish, yoshlar va sportni qo'llab-quvvatlash dasturidir. Fuqarolar asosiy yo'nalishlar orqali shaxsiy va kasbiy o'sishni rivojlantirishga da'vat etiladi. Erasmus+ ko'proq ishtirokchilarni va kengroq tashkilotlarni jalb qilish imkoniyatlarini oshirish, sifatli ta'sirga e'tibor qaratish va yanada inklyuziv va yaxlit, yashil va raqamli mos jamiyatlarga hissa qo'shish bo'yicha sa'y-harakatlarini kuchaytiradi.

O'zbekiston Erasmus+ Milliy Ofisi:

Manzil: 100084 Toshkent, Amir Temur shoxko'chasi 107B, Xalqaro Biznes Markazi, 5-qavat.
E-mail: neo@erasmusplus.uz
Website: www.erasmusplus.uz

Tojikiston Erasmus+ Milliy Ofisi:

Manzil: Dushanbe, Ayniy ko'chasi 40
E-mail: erasmustjk@gmail.com
Instagram: [erasmusplus_tj](https://www.instagram.com/erasmusplus_tj)
Facebook: Erasmusplusin Tajikistan



Co-funded by
the European Union



OFINU - "OPEN FOOD INNOVATION UNIVERSITY – OZIQ-OVQAT INNOVATSIYALARI SOHASIDA OCHIQ UNIVERSITET" LOYIHASI



Yettita to'liq va oltita qo'shimcha hamkordan iborat konsortsiy "Oziq-ovqat innovatsiyalari sohasida ochiq universitet" loyihasini amalga oshirmoqda. Yetakchi hamkor - **Latviya Hayot fanlari va texnologiyalari universiteti**.



Amalga oshirish davri:
2024-yil 1-fevral– 2027-yil 31-yanvar



LOYIHA

Umumiy maqsad:

O'zbekiston va Tojikistonda oziq-ovqat innovatsiyalari va texnologiyalari bilan bog'liq oliy ta'limni modernizatsiya qilish, shu orqali oliy ta'lim sifatini oshirish va manfaatdor mamlakatlar va ayniqsa, ular mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy o'sish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlash.

Loyihaning ta'sir doirasi:

Konsortsium Markaziy Osiyoning beshta universitetida o'qitish modulli formatda amalga oshiriladigan va kunduzgi ta'lim bo'yicha talabalar bilan birgalikda mustaqil tinglovchilar ham ishtirok etadigan ta'limning yangi shakli bo'lgan **OCHIQ UNIVERSITET tashkil etishni** maqsad qilgan

Mustaqil tinglovchilar universitetga rasmiy ravishda qabul qilinadi va oldindan tanlab olingan ma'lum modullarda o'qishga qatnashishi mumkin. Ular bosqichma-bosqich (tegishli universitet tomonidan qo'yilgan talablarni bajargandan so'ng) oliy ma'lumot diplomini olish imkonini beruvchi kreditlar soniga ega bo'ladilar yoki faqat bir yoki bir nechta modullarda qatnashishlari mumkin, o'zlarining qiziqishlariga qarab va o'qishni tugatgandan so'ng sertifikat oladilar.

OCHIQ UNIVERSITET professor-o'qituvchilar tomonidan taqdim etilgan nazariya va tegishli biznes sektorlari tomonidan taqdim etilgan amaliyot o'rtasidagi sinergiyani ta'minlaydi. Bilim va amaliyotning uyg'unligi ochiq universitet tadqiqotlarining asosidir. Innovatsiya ham loyihaning muhim qismi bo'ladi va o'quv modullari mazmuni va o'qitish usullariga integratsiya qilinadi.

Yangi tashkil etilgan OCHIQ UNIVERSITETLarda ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan o'quv modullari

1-modul. Sutni qayta ishlash texnologiyasi

2-modul. Go'shtni qayta ishlash texnologiyasi

3-modul. Meva-sabzavotlarni qayta ishlash texnologiyasi

4-modul. Donni qayta ishlash texnologiyasi

5-modul. Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish

6-modul. Yangi oziq-ovqat mahsulotlarini yaratish

7-modul. Ilmiy maqolalar yozish

OCHIQ UNIVERSITETGA KIM, QANDAY VA QAYERDA QO'SHILISHI MUMKIN

Kim "mustaqil tinglovchi" bo'lishi mumkin?

- oziq-ovqat texnologiyasi va innovatsiyalari bo'yicha maxsus bilim olishni hohlovchi yoki
- oliy ma'lumotga ega bo'lishni hohlovchi, ammo to'liq vaqtda o'qish imkoniyati cheklangan O'zbekiston va Tojikistonning ixtiyoriy fuqarolari

Biz quyidagilarni o'qishga taklif etamiz:

- Oliy ta'limning bakalavriat bosqichi bitiruvchilari
- O'z bilim saviyasi va malakasini oshirishni xohlovchi oziq-ovqat korxonalariga mutaxassislari
- Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sohasiga aloqador davlat va xususiy tashkilotlar vakillari
- Bir yoki bir nechta o'quv modullariga qiziqqan har bir kishi

Mustaqil tinglovchilar qanday tadbirlarda qatnashadi?

- Yevropa Ittifoqi professorlari bilan hamkorlikda tayyorlangan materiallar asosida sinov davri dars mashg'ulotlari (trening)
- Oziq-ovqat texnologiyalari va innovatsiyalarga oid savollarni berish va ilmiy asoslangan bilim va amaliyotlarga asoslangan javoblarni olish mumkin bo'lgan munozaralar
- Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va innovatsiyalar bo'yicha mutaxassislar bilan individual konsultatsiyalar

Qachon?

- Mashg'ulotlar 2025-yil sentabrda boshlanadi
- Siz qiziqishni bildirishingiz va 2025-yil yanvaridan boshlab murojaat qilishingiz mumkin

Sinov darslari qayerda tashkil etiladi?

- Tojikistonda: Dushanbe, Isfara, Kulob
- O'zbekistonda: Samarqand, Andijon

Qanday qatnashish mumkin?

Eng yaqin universitet xodimlariga murojaat qiling. Murojaat uchun:

<https://ofinu.eu/course/view.php?id=2>

NEGA OCHIQ UNIVERSITETDA O'QISH KERAK?

Ochiq Universitet talabalarining imkoniyatlari va kundalik yuklamasiga moslashtirilgan hajm va vaqtidagi bilim va amaliyot manbai hisoblanadi. Bilim sizning g'oyalaringizni haqiqatga aylantirishga va hayotingizda orzu qilgan muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

